

TO‘QQAL’A OSSUARIYLARINING YASALISH USHLUBLARI VA ULARDAGI SUYAKLARNING JOYLASHTIRISH TARTIBLARI

Jo‘raboyev Ismoiljon Mahamadjon o‘g‘li
Arxeologiya yo‘nalishi magistri Urganch Davlat Universiteti

Tel: +998976200422 E-mail: ismoils423@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21902227>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi To‘q-qal’a qabristonidan topilgan ossuariylarning yasash texnikasi va ularda inson suyaklarining joylashtirish tartiblari A.V.Gudkova manbalari asosida tahlil qilinadi. Maqolada alebstrli, sopol va tosh ossuariylarining tayyorlanish usullari, ularning o‘lchamlari va shakl xilma-xilliklari tavsiflab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: To‘q qal’a, ossuariy, naus, zardushtiylik, suyaklar joylashuvi, A.V.Gudkova, Xorazm vohasi.

Аннотация. В данной статье на основе материалов А.В. Гудковой анализируется техника изготовления оссуариев, обнаруженных на некрополе Ток-кала в Хорезмском оазисе, а также порядок размещения в них человеческих костей. В статье описываются способы изготовления алебастровых, керамических и каменных оссуариев, их размеры и разнообразие форм.

Ключевые слова: Ток-кала, оссуарий, наус, зороастризм, расположение костей, А.В. Гудкова, Хорезмский оазис.

Abstract. This article, based on the materials of A.V. Gudkova, analyzes the manufacturing techniques of ossuaries discovered at the Toq-qal'a necropolis in the Khorezm oasis, as well as the arrangement of human bones within them. The article describes the production methods of plaster (alabaster), ceramic, and stone ossuaries, along with their dimensions and variety of forms.

Keywords: Toq-qal'a, ossuary, naus, Zoroastrianism, bone arrangement, A.V. Gudkova, Khorezm oasis.

KIRISH. To‘qqal’a yodgorligi va shu nomdagi qabriston Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridan 14 km shimoli-g‘arbdagi To‘qtog‘ tepaligi shimoli-sharqiy va sharqiy yonbag‘rida joylashgan. Ushbu yodgorlik va qabriston shahar aholisining Sirdaryoning quyi oqimidan ko‘chib kelishi natijasida vujudga kelgan va XI asrgacha faoliyat ko‘rsatgan Kerder mintaqasining bir qismi hisoblanadi [3. 1964:B.80-92]. Qabristonda 1960, 1962, 1964-yillarda A.V. Gudkova tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bir qancha kraniologik, osteologik ma‘lumotlar to‘planadi.

O‘zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog‘iston filiali arxeologik jamoasi 1968-yilda qabristonni o‘rganish ishlarini davom ettiradi. Olingan kraniologik va osteologik ma‘lumotlar asosida T.K. Xodjayov 1971–1973-yillarda aholi antropologiyasini o‘rganadi [12. 1971:B.68-72; 13. 1973:B.63-101].

To‘qqal’a qabristoni taxminan 4 gektarni tashkil qilib, u ushbu manzilgoh devorlari tashqi tomonida joylashadi. Qabriston asosan nauslardan iborat bo‘lib, ularga zardushtiylik an‘anasiga muvofiq go‘shtlari tanasidan tozalangan suyaklar joylangan. Ossuariy va nauslarning g‘isht qalinligi kuchli yuvilib ketgan joylarda — tepalikning IV raqamli qazishmasida o‘tkazilgan tik yonbag‘rida hamda V raqamli qazishma maydonida o‘tkazilgan sharqiy yonbag‘rida aniqlanadi. Qabriston to‘g‘risidagi asosiy ma‘lumotlar IV qazishmadan olinadi [3. 1964:B.85].

V raqamli qazishmadan bir dona naus qoldig‘i aniqlangan bo‘lib, taxminlarga ko‘ra 4×5 m o‘lchamdagi, pishiq, xom g‘ishtli devorlarga ega bo‘lgan to‘rtburchak kamera ko‘rinishidagi inshoot hisoblangan. Kameraning o‘lchami 2,5×2,5 m. Janubiy devor qalinligi 2,3 m, qolgan devorlarning qalinligi esa 1,1 m ni tashkil qilgan. Naus devorlari uchun foydalanilgan g‘isht o‘lchamlari 30×30×7 sm. Naus qurilgan sath ustidagi kul, ko‘mir, qora chirindi va sopol parchalari ingichka qatlamni hosil qilib, u ayni vaqtda nausning poli vazifasini ham o‘tagan. Kamera ichidan butun ossuariylar topilmaydi, ammo uning tevarak-atrofida ko‘plab ossuariy parchalari aniqlanadi. Kameraning janubi-sharqiy va janubi-g‘arbiy burchaklarida loy kesaklari va g‘isht parchalaridan terilgan sodda to‘siqlar aniqlanadi. Janubi-g‘arbiy to‘siq bo‘sh, janubi-sharqiy to‘siqdan esa uchta inson bosh suyagi va oyoq-qo‘llarining uzun suyaklari aniqlanadi. Ushbu to‘siq yonidan kichik chuqurchada burchaklari yumaloqlangan, oyoqsiz, to‘rtburchak shaklli sopol ossuariyning bir qismi aniqlanib, uning ichidan it suyaklari topiladi. Nausning shimoliy tomonida tuproqqa ko‘milgan, ichida bolalar suyaklari dafn etilgan qo‘lda yasalgan ro‘zg‘or xumchalari ham topib o‘rganiladi [3. 1964:B.86].

№4 raqamli qazishmadan ikkita — №1 va №2 nauslar to‘liq ochib o‘rganiladi.

№1 naus 30×30×8 sm hajmdagi xom g‘ishtlardan qurilib, hozirgi kunda 1 m balandlikdagi qismi saqlanib qolgan. Naus o‘lchamlari 4×4 m bo‘lib, ichida kichik kamera joylashgan. Kameraning uchta devori bo‘ylab 20 sm balandlikdagi supa o‘tgan bo‘lib, supa ustidagi maxsus uyalarda 3 ta alebstrdan yasalgan ossuariy topiladi. Shuningdek, devorga afriq‘iyalar davriga oid xum o‘rnatilgan bo‘lib, uning ichidan inson bosh suyaklari va boshqa tana a‘zolari suyaklari topiladi. Undan tashqari o‘ndan ortiq ossuariy parchalari aniqlangan bo‘lib, ularning ko‘pi qattiq shikastlangan, ayrimlarining esa oyoqchalari va tub qismlari saqlanib qolgan.

№2 naus nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. U 11×6 m o‘lchamdagi, yer ostiga yarim ko‘milgan ikki xonali inshoot hisoblanadi. Kichik (2,7×4,8 m) xonaning devorlarida ossuariylarni qo‘yish uchun 10 ta tokcha bo‘lsa, katta (3×6 m) xonaning devorlarida tokchalar mavjudligini tadqiqotchilar aniqlay olmagan. Xonaning poliga tuproq ustidan qum qatlami to‘shalgan. Qum sathidan yuqoridagi devorlar esa loy suvoq bilan suvalgan. Tadqiqotlar jarayonida nauslarning yer ostiga yarim ko‘milgan konstruksiyasi A.V. Gudkovada qiziqish uyg‘otadi; tadqiqotchi bunday qurilish an‘anasini zardushtiylik tasavvurlarining mahalliy jihatlari bilan bog‘laydi [3. 1964:B.89].

Katta xonaning polida singan ossuariy va sochilib yotgan suyak qoldiqlari ham aniqlanadi. Kichik xonadan esa 50 dan ortiq ossuariy, shuningdek 2 ta sopol va 1 ta tosh ossuariy hamda xum ichiga qilingan bola dafni topiladi. Xonani tadqiq etish davomida u butunlay singan ossuariylar, ularning qopqoqlari, bosh va boshqa tana a‘zolari suyaklari bilan to‘lib ketganligi aniqlanadi. Tokchalarning birida bosh suyaklar va boshqa suyaklar solingan qopqoq ossuariy vazifasini bajarib turganligi guvohi bo‘linadi. Xonaning shimoliy qismidagi ossuariylar dastlab tartib bilan joylashtirilgan, keyinchalik esa duch kelgan yerga shoshilinch tarzda tartibsiz joylashtirilgan. Bu esa ushbu joyda nauslardan foydalanishning to‘xtatilishi va yashiringan ossuariylarning tahqirlanganligi haqidagi xulosani yuzaga keltiradi.

Ikki sopol ossuariy burchaklari yumaloqlangan to‘rtburchak qutilar ko‘rinishiga ega bo‘lib, ulardan biri to‘rt oyoqli, ikkinchisi esa oyoqsiz ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ularning qopqoqlari qo‘ziqorincha yoki sharsimon tutqichli shaklga ega bo‘lgan. Oyoqchasiz ossuariy qopqog‘ining qarama-qarshi ikki burchagida chuqurchalar ishlangan; odatiy holatda bunday chuqurchalar har bir burchakda mavjud bo‘lib, ikki chuqurchali ko‘rinish esa birinchi marta uchraganligi tadqiqotchilar tomonidan bildiriladi [7. 1962:B.55]. Har ikki ossuariy afriq‘iyalar davri xumlarini yasashda qo‘llaniladigan dag‘al loy qorishmasidan tayyorlangan. Bunday turdagi sopol ossuariylar Tuproqqal‘adan ham topilib, ular VI–VII asrlarga oid deb hisoblanadi [9. 1948:B.149]. Tosh ossuariylar va uning qopqog‘i butun qumtosh bo‘laklaridan o‘yib ishlangan [2. 1948:B.150-155; 10. 1949-1953:B.164]. Ossuariyning yon devorlarida va qopqog‘ining har ikki tomonida doira shaklidagi teshiklar ochilgan bo‘lib, ular orqali qopqoqning surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydigan mahkamlagichlar o‘tkazilgan bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Alebastrli ossuariylar to‘rt oyoqli, usti yassilangan to‘rt nishabli qopqoqli to‘rtburchak quticha shakliga ega hisoblanadi. Ularning o‘rtacha o‘lchamlari: balandligi va kengligi 28 sm dan, uzunligi 45 sm, qopqoq bilan birga balandligi 42 sm ni tashkil qiladi. Bunday ossuariylar Xorazmda faqat afriq‘iyalar davridagina mavjud bo‘lgan; shuningdek, ushbu tuzilishdagi ossuariylar Quyuqqal‘a qabristonidan ham topiladi [5. 1959:B.128].

Ossuariylarda saqlanib qolgan izlar ularning yasash jarayonini qisman tiklash imkonini beradi. Ossuariylarni tayyorlashning asosiy usuli — ularni qolipga butunlay yoki qismlarga bo‘lib quyish bo‘lgan. Butunlay quyishda qo‘sh qolipdan foydalanilgan bo‘lib, tayyorlash vaqtida u ossuariyning oyoqlari tepaga qaragan holatda o‘rnatilgan. Taxtalardan ko‘pincha tashqi burchaklar yasashda foydalanilgan va natijada aniq qirralar hosil bo‘lgan. Ossuariylarni yasovchi qolipning qolgan qismi loydan bo‘lgan. Bunday usulda tayyorlangan ossuariylarning tubi va oyoqlarining pastki qismi notekis chiqish ehtimoli mavjud bo‘lib, ba‘zan ularni qo‘l bilan silliqlashgan yoki pichoq bilan to‘g‘rilashgan. Boshqa holatlarda esa qolipda alohida qismlar quyib olinib, keyinchalik ular bir-biriga birlashtirilgan. Yirik ossuariylarning devorlari ba‘zan bir necha bosqichda, ganchni qatlam-qatlam qilib quyish orqali yasilib, tayyor bo‘lgan ossuariylarning sifatsiz qismlari tashqi tomondan qo‘shimcha ganch qatlami bilan suvalgan. Qolipning ossuariyning ichki yuzasiga tegib turadigan qismlariga ko‘pincha qum sepilgan — bu usulning davomi sifatida bugungi kunda ham qo‘l mehnati asosida quyiladigan g‘ishtlar qoliplariga qum sepish an‘anasi saqlanib qolganini aytishimiz mumkin. Qopqoqlar doimo yer qolipda, chetiga yog‘och rama qo‘yilgan holda butunlay quyilgan. Quyish paytida qopqoqning tashqi qavariq yuzasi pastga qaragan bo‘lgan, ichki tomoni esa qo‘l bilan silliqlangan. Qopqoq qirralarining tashqi tomondan aniqligi qolipning sifatiga bog‘liq bo‘lgan; ba‘zan tayyor bo‘lgandan keyin qopqoqning tashqi tomoni biroz to‘g‘rilangan va kesib

pardozlangan. Ossuariylar har doim yakka tartibda tayyorlangan. Bunday usuldagi ossuariylar So‘g‘dning sopol ossuariylarida ham mavjud bo‘lgan [6. 1950:B.47].

Kichik xonadagi ossuariylarning devor va qopqoq qismlarida qora bo‘yoq bilan bitilgan jami 54 ta yozuv aniqlangan bo‘lib, ulardan 49 tasini tiklash imkoni yuzaga kelgan. Ayrim yozuvlar bir necha satrda batafsil yozilgan bo‘lib, ayrimlari esa faqat bir so‘zdan iborat bo‘lgan. Yozuvlar asosan ossuariylarning yon tomoniga o‘ngdan chapga qarata yozilgan, ayrim holatda esa yozuvlar ham ossuariy, ham qopqoq qismlariga teng yozilgan. Yozuvlarni o‘qish bilan shug‘ullangan S.P. Tolstov ularda sanalar ham borligini aniqlab, eng qadimiysi 605-yilni ko‘rsatishini ma‘lum qiladi [3. 1964:B.94]. Yozuvlarning alifbosi Tuproqqal‘adan topilgan qadimgi Xorazm hujjatlari alifbosining rivojlangan shakli bo‘lib, bunday alifboda Yakka Porson yodgorligidan topilgan hujjatlar ham bitilgani aniqlanadi [11. 1962:B.257-258].

XULOSA. Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, qabristonning manzilgoh devorlaridan tashqarida joylashishi Panjikent, Poykent va Kofir-qal‘a qabristonlari joylashuviga ham mos keladi.

V raqamli qazishmada aniqlangan naus qurilgan sath ustiga kul, ko‘mir va sopol buyumlari kabi turli-xil ashyolarning to‘shalishi bevosita zardushtiylik ta‘limoti bilan bog‘liq hisoblanadi; tuproq sofliğini saqlash maqsadida ossuariy va tuproq orasida shunday sun‘iy qatlam hosil qilingan, deb taxmin qilishimiz mumkin. Bu an‘ana bugungi kunda ham ma‘lum ko‘rinishlarda yetib kelgan bo‘lib, Xorazm vohasida odatga ko‘ra janoza o‘qilishi oldidan o‘sha maydonga qum sepilgan. Qum shamolga uchib ketgandan so‘ng, yer yana tozalik holatida qolishi maqsad qilingan. Ba‘zi holatlarda esa tobut beda o‘sadigan yerda qo‘yiladi yoki maydon ustiga gilam, mato kabi maxsus vositalar to‘shaladi.

Ossuariylarda odatda bir shaxsning suyaklari joylashtirilgan bo‘lib, ikki holat bundan mustasno hisoblanadi. Ularning birida ikkita kattalar bosh suyagi, ikkinchisida esa ikkita kattalar va bir dona bolaning bosh suyaklari aniqlanadi. Ossuariylarning birida it suyaklarining dafn etilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazm vohasining ko‘plab hududlarida ruh o‘z uyiga it yoki mushuk ko‘rinishida kelishiga ishonilgan. Dafn tartiblarida it bilan bog‘liq kultlarning mavjudligini yuqorida tavsiflangan it suyagining dafn etilishi yoki ossuariylardagi tasvirlarda it suratining aks etilishidan bilib olishimiz mumkin. Bu an‘analarning mohiyatini zardushtiylik qonuniyatlari bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zardushtiylik qonuniyatlariga ko‘ra it alohida e‘zozlanadigan hayvon sifatida ajralib turgan; uning hayoti, farovonligi yoki o‘limi insonlarnikiga teng munosabatda bo‘lishi belgilangan, jasadini dafn qilishda ham insonnikidek muomala qilish buyurilgan. Xorazm vohasidagi ikki ziyoratgohda it ushbu qadamjodagi muqaddas shaxs bilan bir e‘tiqodda ekanligi qayd etiladi. Ulardan biri Ko‘hna Mizdahkon majmuasidagi Shamun-nabi maqbarasi bo‘lib, rivoyatga ko‘ra it Shamun-nabining haloskori hisoblanadi: Shamun-nabi yovuz dushmani Gyaur bilan kurashayotganda it uni yengishda egasiga hamrohlik qiladi [4. 1949:B.87-88]. Ikkinchi ziyoratgoh — Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro majmuasi bo‘lib, unda it shayxning sodiq hamrohi hisoblangan; qabr yaqinidagi qalandarxonada darveshlar itlarni saqlab-boqishgani haqida ma‘lumot keltiriladi [8. 2018:B.310]. Xorazm vohasidagi boshqa hududlarda ham itlarning jag‘ suyaklari topilgan bo‘lib, bu holat itlarga alohida ahamiyat berilganligini bildiradi [1. 1960:B.101; 14. 1961:B.218].

Xulosa qilib aytganda, To‘qqal‘a mozar-qo‘rg‘onining ahamiyati Xorazm vohasining dafn tartiblari bilan bog‘liq ko‘plab masalalarga yechim izlashda beqiyos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Альбаум Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960.
2. Вязигин С.А. Оссуарии с городища Калалы-гыр 1 Ташаузской области ТуркмССР // ВДИ. – 1948.
3. Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: Фан, 1964.
4. Кнорозов Ю.В. Мазар Шамун-наби // Советская этнография. – 1949.
5. Неразик Е.Е., Рапопорт Ю.А. Куюк-кала в 1956 г. // МХЭ. Вып. 1. – М., 1959.
6. Пугаченкова Г.А. Элементы согдийской архитектуры на среднеазиатских терракотах // ТИИА АН УзССР. Т. 2. – 1950.
7. Рапопорт Ю.А. Об изображении на Бартымском блюде, найденном в 1951 г. // СА. – 1962.
8. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф одатлари. – Урганч: Кувончбек-Машхура, 2018.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948.
10. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1949–1953 гг.

11. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962.
12. Ходжайов Т.К. Краниологический материал второй половины VIII–X вв. из Токкалы // ВКФ. – 1971.
13. Ходжайов Т.К. К антропологии населения Токкалы (Древний Дарсан) // Вопросы антропологии и материальной культуры Кердера. – Ташкент: Фан, 1973.
14. Шишкина Г.В. Раннесредневековая сельская усадьба под Самаркандом // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 2. – Ташкент, 1961.